


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

*70210801 – Tasviriylar va amaliy bezak san'ati magistratura  
mutaxassisligining*

*MALAKA TALABI*

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**  
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “01” 08 dagi 274 – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka dojralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiyl tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....	6
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....	7
4. Fanlar katalogining tuzilishi .....	7
Bibliografik ma'lumotlar.....	11
Kelishuv varag'i.....	12

## **1. Umumiy tavsifi**

70210801 – Tasviriy va amaliy bezak san'ati magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati – 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70210801 – Tasviriy va amaliy bezak san'ati magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

##### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, O'zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi ixtisoslashtirilgan san'at maktablari xamda maktab-internatlari, bolalar musiqa va san'at maktablari, barkamol avlod bolalar maktablarida mutaxsislikka oid fanlarni o'qitish, Davlat va nodavlat tashkilotlari, korxona va ta'lim muassasalari, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va sohaga oid korxonalarda tasviriy va amaliy bezak san'ati bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

##### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablari, barkamol avlod bolalar

maktablari, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlarda pedagogik faoliyat;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lif muassasalarida o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot faoliyati;

O'zbekiston Badiiy akademiyasi va uning qoshidagi badiiy ijodkorlar uyushmasi;

sohaga oid Davlat va nodavlat tashkilotlari;

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *pedagogik faoliyat;*
- *axborot-tahliliy faoliyat*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70210801 – Tasviriy va amaliy bezak san'ati magistratura mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

mutaxassislikka oid Respublika va xorijda chop etilgan tasviriy-amaliy bezak san'ati sohasiga oid ilmiy manbalarni o'rghanish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtiroy etish;

jahon tasviriy va amaliy bezak san'ati bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda erishilayotgan ijobjiy natijalarni o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari, amaliy va fundamental grantlarga tadbiq qilish;

tasviriy va amaliy bezak san'ati turlari bo'yicha ijodiy asarlar yaratish, sohaga oid ijodiy va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish, milliy va zamonaviy tasviriy va amaliy bezak san'ati sohasidagi obyektlarni tahlil qilish;

ilmiy-tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtiroy etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari va vositalaridan foydalanish;

o'quv jarayoni va ilmiy faoliyatni tashkil etish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

xorijiy va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiya, seminar, tasviriy va amaliy san'at festivallari, biennale va ko'rgazmalarda faol ishtiroy etish;

OAK tasarrufidagi xorijiy va respublika ilmiy jurnallarga maqolalar tayyorlash qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o‘qitishni tashkil qilish va korporativ ma’lumotlar bazasini rivojlantirishi;

ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etishi;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratishi va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqishi va tatbiq qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

**Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalaridagi pedagogik faoliyatda (o‘rnatilgan tartibda):**

Oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bakalavriat va magistratura o‘quv rejalarida o‘zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasini egallashi;

oliy va o‘rta maxsus, professional ta’limi tizimining ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishi;

o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;

mustaqil ta’lim, pedagogik va ilmiy-ijodiy faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib boorish;

uzluksiz ta’lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o‘quv-meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

**Konsalting xizmati faoliyati:**

tasviriy va amaliy bezak san’ati sohasida mutaxassisliklar bo‘yicha mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

tasviriy va amaliy bezak san’ati sohasiga oid turli global mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish, tahliliy bayonlar yaratish bo‘yicha ekspert guruhlarida a’zo sifatida ishtirok etishi;

ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha konsalting (konsultativ konsilium) xizmatlarini ko‘rsatish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

### Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;  
axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;  
boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

### 2. Kasbiy kompetensiylariga qo'yiladigan talablar

ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilish va kasbiy faoliyatda undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

o'z faoliyatida amaliy bezak san'ati sohasiga oid meyoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ilmiy tadqiqotlar asosida ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishslashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish;

an'anaviy tasviriy va amaliy bezak san'atini ustoz-shogird tizimi asosida takomillashtirish, estetik va badiiy didni shakllantirish, amaliy san'at asarlarini ta'mirlash, amaliy san'at asarlarini o'rgatish va ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilish;

soha bo'yicha oliy ta'lim muassasalari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida doktorant yoki mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondasha olishi;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### 3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

**Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy bilimlar, amaliy ko'nkmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.**

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiylukda yuqilamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1620</b>	<b>54</b>	
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03	RVChBY1318	Rangtasvir va chizmatasvirda badiiy yechim	540	18	1,2,3
1.04	BLKY1314	Badiiy loyihalashda kompozitsion yechim	420	14	1,2,3
1.05	ASAShIsh1314	Amaliy san'atda ashyoda ishlash	420	14	1,2,3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>2,3</b>
2.00		Tanlov fanlar	360	12	2,3
Kvalifikatsiya:		Pedagog-tadqiqotchi, amaliy bezak san'ati bo'yicha mutaxassis			
		Jami	1980	66	
		Ilmiy faoliyat	1620	54	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, amaliy san'at, ko'rgazma, madaniy meros, badiiy loyihalash, naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik, zardo'zlik, kashtachilik, zargarlik, kulolchilik, amaliy, ta'mir, proyeksiya, aksonometriya, bezak, rapport, xajmiy-fazoviy yechim, umumiylitlik, qoralama, eskiz, karton, dinamika, statika, simmetriya, assimetriya, ritm, shakl, o'lcham, axromatika, xromatika, kompozitsion yechim, kompozitsion joylashuv, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, geometrik tahlil, ranglar uyg'unligi, stilizatsiya, islamiy, girih, targ'il, pardoz, qabariq, xom ashyo, emal, sirlash.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:


Kamoliddin Behzod nomidagi  
Milliy rassomlik va dizayn instituti

Rektor  A. Mirzoraximov

2024-yil " " M.O.




O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor  N. Sayfullayev



2024 yil " " M.O.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Direktor  M. Boltabayev



2024 yil " " M.O.

O'zbekiston Badiiy akademiyasi

Rais  A. Nuridinov



M.O.

2024 yil " " M.O.

YTT "Shernazarov Shamsiddin  
Mahmadqulovich"  
Rahbar  Sh. Shernazarov

2024 yil " " M.O.

M. O.

